

METAFORALARNING LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDAGI AHAMIYATI

Shonazarova Hulkaroy Bunyod qizi

O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi Xorazm, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada metaforalarning kelib chiqish tarixi haqida turli qarashlar, til birligi sifatidagi ahamiyati, o'xshatishlardan farqi va ilmiy jihatdan o'rganishning nazariy asoslari haqida so'z boradi. Folklor asarlari orasida topishmoqlar xalq tilining o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda katta ahamiyatga ega bo'lganligi bois til va tafakkur uzviyligi, ayniqsa, topishmoqlarda yaqqol namoyon bo'lishi keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *metafora, o'xshatishlar, lingvokulturologiya, til va madaniyat, topishmoqlar, konseptual tizim.*

Keyingi o'n yilliklar davomida metaforaning paydo bo'lish tarixi va uning madaniyatni tilda namoyon etishdagi o'rnini ya'ni lingvokulturologik ahamiyatini tadqiq etish ko'pgina tilshunos olimlarning diqqat markazida bo'ldi. Garchi metafora muammosi ikki ming yildan buyon olimlarning diqqat markazida bo'lsa ham, bugungi kungacha yo stilistik vosita sifatida, yo badiiy uslub sifatida tadqiq etib kelinar edi. Faqatgina oxirgi o'n yilliklar davomida tilshunoslar va faylasuflar diqqati metaforaning ontologiyasini tadqiq etishga ko'chdi (N.D.Arutyunova, V.N.Teliya, B.Blek, J.Lakoff, M.Jonson va boshqalar).

Frazeologik birliklar va metafora mazmunining rejasi hamda ularga biriktirilgan madaniy konnotatsiyalar tufayli madaniy belgilarning eksponentlariga aylandilar. Metaforani ushbu nuqtayi nazardan ko'rib chiqamiz.

XX asrning oxirlarida metafora oldingilardan ko'ra murakkabroq va muhimroq hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi. Metaforaning kelib chiqish tarixi haqida tilshunoslar turli xil qarashlarni ilgari surishadi. Maslova metaforaning kelib chiqishini insonning genezisi bilan va tegishli ravishda inson madaniyati bilan bog'laydi. Va eng qadimiy til, qadimiy ibtidoiy aloqalar metaforik bo'lganligini ta'kidlaydi. M.Myuller fikriga ko'ra esa metafora qadimiy til leksik qashshoqligi sababli vujudga kelgan. So'z zahirasi kam bo'lgan va inson har xil predmetlar va hodisalarga bir xil so'zlarni ishlatishga majbur bo'lgan.

Bizning fikrimizcha, metafora qadimiy tilning leksik qashshoqligi yoki so'z zahirasi kamligi tufayli vujudga kelmagan. Bu borada biz A.N.Afanasevning fikrlariga tayanamiz. Uning yozishicha, metafora o'xshash tasavvurlarni uyg'otadigan predmetlarni o'zaro yaqinlashishi natijasida paydo bo'lgan. Metafora

mutlaqo ozod, boy manbadan olingan, zarurat, ehtiyoj yoki tilning qashshoqligidan paydo bo'lmagan.

Metafora tildagi universal hodisa bo'lib, u hamma tillarga xosdir. Uning universalligi makon va zamonda, tilning strukturasi va faoliyatida namoyon bo'ladi. Metafora fan uchun mahsuldor tushunchadir. M.M.Batxin "xronotop" degan atamani fanga deyarli metafora kabi kiritganini ta'kidlaydi. Aksariyat eng qulay ilmiy atamalar metaforalardir: "ichki shakl", "madaniy konnotatsiya", "tirik suv" va boshqalar. Metafora bu tilning eng sirli voqealaridan biridir. Metafora ta'rifining xilma-xilligiga qaramay deyarli hammalari Aristotel ta'rifiga borib taqaladi: "Metafora bu g'ayri oddiy nomni bir turdan boshqa xilga, yoki xildan turga, yoki xildan xilga, yoki o'xshashdan o'xshashga ko'chirishdir".

M.Minskiyning fikricha nutqiy yoki fikriy hodisada ikki tushunchani bog'lanishi bir tizim bo'lib, boshqa ma'nolar o'rniga o'tadi, chunki metafora nomi yo'q narsani ayon qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Metaforaning paydo bo'lishi til egalarining konseptual tizimi, ularning dunyo haqidagi standart tasavvurlari, baholash tizimi bilan bog'liqdir. Metaforaning ijod qilish mexanizmi quyidagicha: har xil mantiqiy sinflardan ikki turli predmet olinadi hamda ular umumiy alomatlar va xususiyatlar asosida bir-biriga tenglashtiriladi.

Inson metaforani vujudga keltirayotganida go'yo sifatlar va xususiyatlar olamida, mantiqiy sinflarda va ularning substansiyalari (o'rinbosarlari) olamida yashaganday bo'ladi. Metafora abstrakt ma'nodagi belgi, alomat va sifatlarni ajatib chiqarmaydi, balki predmetning mazmun mohiyatining ma'no timsolini aniqlaydi. O.Mandelstam royni "aqlli va yoqimli uy hayvoni" deb aytganda, u predmetlarni soddagina qilib turli mantiqiy sinflardan olmaydi. Bu yerda gap real predmetlar haqida emas, balki ongda paydo bo'lgan predmetlarning timsollari haqida boradi. Shunday qilib bir butunning mohiyati vujudga keladi. Sh.Balli yozadi: "Biz abstrakt tushunchalarni hissiyot olami predmetlariga qiyoslaymiz(o'xshatamiz), chunki bu biz uchun yagona ularni anglash usuli va boshqalarni ular bilan tanishtirish yo'lidir. Metaforaning kelib chiqishi shundaydir. Metafora bu qiyoslashdan boshqa narsa emas, unda idrok abstrakt tushunchani va muayyan predmetni yaqinlashtirish tamoyili ta'sirida bitta so'zda har ikkisini mujassamlashtiradi".

Metafora o'zida asosiy madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, chunki metafora madaniy-milliy dunyoqarashga asoslangan. Biz metaforaning lingvokulturologik ahamiyatini topishmoqlar misolida ko'rsatib berishga harakat qildik. Chunki topishmoqlar metaforalar bilan yo'g'rilgan xalq tilining go'zal namunalari sanaladi. Topishmoqlar metaforik matnni hosil qiladi. Metafora yashirin qiyoslashga imkon beradi. Biz o'zbek xalq topishmoqlarini o'rganish jarayonida aniqladikki,

topishmoqlarning asosiy qismini metaforik topishmoqlar tashkil etadi. Ulardan namunalar keliramiz:

Kichkintoygina kelinchak, Boshida bor tugunchak; Pak-pakana juvon, Boshiga tugun qo'ygan. – Gugurt; Bu topishmoqlarda gugurt shakl jihatdan boshida tugunchagi bor kelinchakka qiyoslanib jumboqlanyapti. O'zbek ayollariga, umuman sharq ayollariga xos bo'lgan bu ko'rinish betakror o'xshatish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

Metafora narsa va hodisalar, predmetlarning u yoki bu belgisi o'xshashligiga asoslangan poetik ko'chim bo'lib, an'anaviy topishmoqlarning mohiyatini belgilaydi.

Xalq topishmoqlarida shunday so'z va iboralar qo'llanganki, ushbu so'z va iboralar asrlar davomida xalqning milliyligini o'ziga singdirgan va xech qanday izohlarsiz milliy mentalitetni ko'rsatuvchi vosita sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Masalan: *Bir parcha patir, Olamga tatir. – Oy;*

Qat-qatgina qatlama, Aqling bo'lsa tashlama. – Kitob; Bu yerda oy shakl jihatdan patirga, kitob esa qatlamaga qiyoslanib jumboqlanyapti. Va ushbu metaforalar faqat o'zbek xalq topishmoqlarigagina tegishli bo'lib, milliy pishiriqlarimiz nomi bilan bog'liqdir.

Eski-eski chaponim, Esimdan chiqmas chaponim, Janda-janda chaponim, Yonimdan ketmas chaponim. – Soya; Bu topishmoqda esa soya chaponga qiyoslangan.

Sariboy bobom ichkari, Soqollari tashqari. – Jo'huri;

Soqoli bir qarich, O'zi ming qarich. – Qamish;

Ushbu topishmoqlarda jumboqlangan predmetning xususiyati sifatida keltirilgan soqol ham urf-odatlarimiz bilan bog'liqdir. O'zbek xalqida qadimdan yoshi ulug' qariyalarga soqol qo'yish urf bo'lgan va bu o'ziga xos ulug'vorlikni, donishmandlikni ramzi bo'lib hisoblanagan.

Folklor asarlari orasida topishmoqlar xalq tilining o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda katta ahamiyatga ega. Ular tuzilishining soddaligi, mantiqiy chuqurligi, ma'no sig'imining murakkabligi bilan ajralib turadi. Til va tafakkur uzviyligi, ayniqsa topishmoqlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bilish jarayonimizda borliqdagi narsa va hodisalarning muhim belgilarining ajratilishi va topilishi lozim bo'lgan narsa va hodisalarning ana shu muhim belgilar ostiga yashirinishi topishmoqlar mazmuniy mundarijasining kengayishiga, shakl va mazmun nomuvofiqligining kuchayishiga, topuvchining fikrlash qobiliyatining o'sishiga olib keladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaev J.X. O'zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. -T., 1993. - 114 b.
2. Арутюнова Н.Д., Степнов Г.В. Русский язык. – М.: Наука, 1979. –С.83.
3. Афанасьев А. Н. Происхождение мифа. – М., 1996. С.35.
4. Аристотель. Поэтика. – Л.,1927. С.39.
5. Ефимов А. И. Стилистика художественной речи. – Москва: МГУ, 1967. –103 стр.
6. Маслова В. А. Введение в лингвокультурологию. - М., 1997.
7. Saparniyozova M. O'zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari: Filol.fan.nomz., diss... -T., 2005.